



CHET TILINI O'QITISHNING METODIK ASOSLARI VA AHAMIYATI

Namangan Davlat Pedagogika Instituti

Yevropa tillari kafedrasi bakalavr talabasi

Xakimova Feruza Ixtiyor qizi

e-mail: hakimovaf305@gmail.com

Telefon: +998938475722

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rganish samaradorligini oshirish maqsadida metodik va leksik yondashuvlar tahlil qilinadi. Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda til ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodlar yoritilgan. Shuningdek, ingliz tili lug‘at boyligini kengaytirish va uning ta’limdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *metod, til ko‘nikmaları, ikkinchi til, lingvistika, zamonaviy yondashuvlar.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются методические и лексические аспекты, направленные на повышение эффективности изучения английского языка. Анализируются современные подходы к формированию языковых навыков у изучающих, а также акцентируется внимание на важности расширения словарного запаса в процессе овладения английским языком.

Ключевые слова: *метод, языковые навыки, второй язык, лингвистика, современные подходы.*

Abstract: This article examines methodological and lexical aspects aimed at enhancing the effectiveness of English language learning. It analyzes modern approaches to developing language skills among learners and highlights the



importance of vocabulary acquisition in the process of mastering English as a second language.

Keywords: *method, language skills, second language, linguistics, modern approaches.*

Hozirda jahon talablaridan biri bo‘lib kelayotgan metodik talablardan biri — xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishning tez, oson va eng asosiysi, samarali yondashuvlarini ishlab chiqish bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarga ikkinchi yoki xorijiy tillarni o‘rgatishda metodik usul va ko‘rsatmalar juda ham ko‘p. Ulardan biri - grammatika-tarjima metodi (grammar-translation method), bunda tarjima qilish va grammatik qoidalarni yodlash orqali o‘qitish amalga oshiriladi, biroq bu usul og‘zaki nutqni rivojlantirmaydi. Yana biri — to‘g‘ridan-to‘g‘ri metod (direct method), bunda o‘rganilayotgan til faqat o‘sha tilda o‘rgatiladi va ona tili aralashmaydi. So‘zlashuv va tinglab tushunishga samarali bo‘lsa-da, murakkab grammatika tushunilmaydi. Audiolingval metod (audiolingual method) tinglash va takrorlash orqali o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, og‘zaki nutqni shakllantirish avtomatik tarzda amalga oshadi. Biroq yozish va mustaqil fikrlash kabi ko‘nikmalar cheklangan bo‘ladi. Kommunikativ metod (Communicative Language Teaching — CLT) esa tildan real vaziyatlarda foydalanishni o‘rgatadi. Bu usulda o‘quvchilar faol ishtirok etib, mustaqil muloqot qilishadi, ammo grammatikani chuqur o‘rgatmaydi. Vazifalarga asoslangan o‘rganish (Task-Based Learning) tilni ma’lum vazifalar bajarish jarayonida o‘rgatadi. Til amaliy qo‘llash orqali o‘zlashtiriladi, biroq grammatikani tizimli o‘rgatish ko‘p hollarda amalga oshirilmaydi. Sug‘orish metodi (Immersion Method) o‘rganuvchini til muhiti ichida o‘qitadi. Til tabiiy usulda o‘zlashtirilganligi sababli ko‘nikmalar avtomatik shakllanadi, lekin boshlang‘ich bosqichda o‘rganish qiyin bo‘lishi mumkin. Total Physical Response (TPR) esa buyruqlar va jismoniy harakatlar bilan birqalikda o‘rgatiladi. Bu metod boshlang‘ich darajada juda samarali, biroq yuqori darajalar uchun unchalik mos emas.



Hozirgi davrda metodlarning turlari juda ko‘p sanaladi. Shunga qaramay, ikkinchi yoki chet tilini o‘rgatishda samaradorlikni oshirish uchun turli usullarni aralashtirib qo‘llash ham keng tarqalgan. Metodlarning farqini bilib olish bilan bir qatorda, ikkinchi til va chet tili tushunchalarining ham farqini anglab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ikkinci til - boshqa qardosh millat vakillari foydalanadigan tilga nisbatan ishlatiladi. Bu holat tillarning geografik yaqinligi yoki o‘zaro o‘xshashligi natijasida yuzaga keladi. Chet tili esa ona tilidan hududi, kelib chiqishi, grammatik tuzilishi va boshqa qoidalari jihatidan farq qiladigan, biroq o‘rganiladigan tilga aytildi.

Masalan, G‘arbiy Yevropa tillari (ingliz, nemis, fransuz va boshqalar) yoki Sharq tillari (arab, fors, xitoy va boshqalar) o‘zbek tiliga nisbatan chet tillar hisoblanadi. Chet tilini o‘qitish metodikasi esa falsafa, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, ona tili va rus tilini o‘qitish metodikalari kabi qator fanlar bilan uzviy aloqada bo‘lib, ularning yutuqlariga tayangan holda metodikani ilmiy asosda ishlab chiqadi [¹].

Chet tilini o‘qitish metodikasi pedagogikada uning didaktikasi, tarbiya nazariyasi, pedagogik psixologiya, nutq psixologiyasi va boshqa yo‘nalishlarga, shuningdek, tilshunoslikning lingvistika va uning tarmoqlariga bog‘liq holda rivojlanadi va takomillashadi. Tilshunoslik yoki lingvistika esa tillarni kishilik jamiyatida qabul qilingan va muloqot jarayonlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan ishoralar (kodlar) tizimi sifatida o‘rganadi. [²].

Metodika tillarni o‘qitish va o‘rganishning samarali usullarini ishlab chiqish hamda til o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni bartaraf etish masalalari bilan shug‘ullanadi. Tilshunoslikda metodika tilning paydo bo‘lishi, uning kishilik jamiyatidagi o‘zgarishlari, rivojlanish jarayoni, faollashish

¹ O’ Hoshimov, I.Yoqubov. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. “Sharq”, Toshkent-2003.-B.13

² O’ Hoshimov, I.Yoqubov. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. “Sharq”, Toshkent-2003.-B.14



qonuniyatlarini va xususiyatlarini ham o‘rganadi. Til o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda uning ta’sir darajasini kuchaytirish ham muhim omillardan biridir.

Til birliklari, iboralar va boshqa so‘z boyligi tarkibining asosiy qismi leksika deb yuritiladi. Leksik jarayonlarning ahamiyati shundaki, leksika tildagi lug‘at tarkibining birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Leksika davrlar mobaynida metodlar singari shakllanib, turlarga bo‘linib kelgan. So‘zlarning vaqt o‘tishi bilan eskirishi yoki yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi natijasida leksika uch turga ajratiladi: zamonaviy, eski va yangi qatlamlar.

Leksikaning ahamiyati - gapirish ko‘nikmasini shakllantirishdadir. Ma’lumki, og‘zaki nutqni rivojlantirish o‘z ichiga tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini qamrab oladi. [³]. Gapirish ko‘nikmasini o‘quvchilarga rivojlantirishda ular doimiy ravishda mashq bajarib o‘rgatilishlaridan tashqari og‘zaki nutqni shakllantirish uchun o‘quvchilar muntazam ravishda real muloqat jarayonlarida ishtirok etishlari va shunga oid amaliy mashg’ulotlarni bajarishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xorijiy tillarni o‘rganish yoki o‘rgatish davri mobaynida o‘quvchilarning, o‘rganuvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish, gapirish kabi ko‘nikmalarini shakllantirish tilni o‘rganishda mukammal erkin muloqot qila olish imkonini beradi. O‘quvchilarga metodlarni tanlashda bosqichma-bosqish o‘quvchilarning til ko‘nikmasini yaxshilash uchun metodlarning vaqtiga bilan almashtirib turish kerak. Metodlar bilan bir qatorda ular erkin muloqot qila olishlari uchun zarur bo‘lgan omillardan yana biri bu o‘quvchilar til ko‘nikmalarining leksik jihatdan mustahkam bo‘lishi hisoblanadi. O‘quvchilarga o‘rgatayorgan so‘zlarini o‘z o‘rnida qo’llay olishlari uchun so‘zning ma’no mazmuni va qaysi ma’noda ko‘proq ishlatilishiga urg‘u berish kerak. Masalan “fresh” va “clean” so‘zlarining tarjimadagi umumiyligi ma’nosini bir xil bo‘lishiga qaramasdan ularning qo’llanish

³ Saydaliyeva, M. A. (2025). Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirishda gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarining uzviyligi. Nauchniy impuls, (31)100.-B.55



usullari turlicha hisoblanadi. O'quvchilarga Ikkinci va xorijiy tillarni shakllantirishda ahamiyatli bo'ladigan yana bir muhim omillardan biri bu ularning ko'nikma va malakalarini to'g'ri baholay olishda namoyon bo'ladi. Til ko'nikmasini to'g'ri baholagan pedagog til o'rganish jarayonini doimiy ravishda nazorat qilib boradi. Shu kabi usullarni tog'ri baholay olish va nazorat qilish yordamida o'quvchilarda til o'rgatish va o'rganish samarali natijalarga erishiladi.

Gapirish ko'nikmasini o'quvchilarda rivojlantirishda, ular doimiy ravishda mashqlar bajarib o'qitilishidan tashqari, og'zaki nutqni shakllantirish uchun o'quvchilarining muntazam ravishda real muloqot jarayonlarida ishtirok etishlari hamda shunga oid amaliy mashg'ulotlarni bajarishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Xorijiy tillarni o'rganish yoki o'rgatish jarayonida o'quvchilarining tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kabi ko'nikmalarini shakllantirish, tilni mukammal o'zlashtirish va erkin muloqot qila olish imkonini yaratadi.

O'quvchilarga metodlarni tanlashda bosqichma-bosqich yondashish hamda til ko'nikmalarini yaxshilash uchun metodlarni vaqtiga vaqtiga bilan almashtirib turish muhimdir. Metodlar bilan bir qatorda, ularning erkin muloqot qila olishlari uchun zarur bo'lgan omillardan yana biri til ko'nikmalarining leksik jihatdan mustahkam bo'lishidir. O'quvchilarga o'rgatilayotgan so'zlarni o'z o'mida qo'llay olishlari uchun so'zning ma'nosi, mazmuni va qaysi kontekstda ko'proq ishlatilishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Masalan, fresh va clean so'zлari tarjimada umumiy ma'noda bir xil bo'lishiga qaramay, ularning qo'llanish sohasi farq qiladi. O'quvchilarda ikkinchi va xorijiy tillarni shakllantirishda ahamiyatli bo'ladigan yana bir muhim omil - ularning ko'nikma va malakalarini to'g'ri baholay olishdir. Til ko'nikmalarini aniq baholagan pedagog til o'rganish jarayonini doimiy ravishda nazorat qilib boradi. Shu kabi usullarni to'g'ri baholash va nazorat qilish orqali o'quvchilarda til o'rganish va o'rgatish jarayonida samarali natijalarga erishish mumkin. Xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish jarayonida metodik va leksik yondashuvlarning



uyg‘unligi o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Turli metodlar — grammatik-tarjima, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, audiolingval, kommunikativ, vazifaga asoslangan va boshqa yondashuvlar — o‘quvchilarning ehtiyojlari, tayyorgarlik darajasi va o‘quv maqsadlariga qarab tanlanishi lozim. Shu bilan birga, metodlarni bosqichma-bosqich va maqsadga muvofiq ravishda almashtirib borish til o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Til o‘rganishda leksikaning o‘rnii alohida ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘at boyligining kengligi va so‘zlarning kontekstga mos qo‘llanishi erkin muloqot uchun poydevor yaratadi. So‘zlar ma’nosini, ularning qo‘llanish sohasini va uslubiy xususiyatlarini aniq tushuntirish o‘quvchilarning tilni faol va to‘g‘ri ishlatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish kabi asosiy ko‘nikmalarni kompleks ravishda shakllantirish, hamda ularni muntazam baholab borish pedagog uchun til o‘qitish jarayonini samarali nazorat qilish imkonini beradi. Shu kabi ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar yordamida o‘quvchilarda ikkinchi yoki chet tilini puxta o‘zlashtirish, erkin va muloqotga yo‘naltirilgan til kompetensiyasini rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’ Hoshimov, I.Yoqubov. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. “Sharq”, Toshkent-2003.-B.13
2. O’ Hoshimov, I.Yoqubov. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. “Sharq”, Toshkent 2003.-B.14
3. Saydaliyeva, M. A. (2025). Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirishda gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarining uzviyligi. Nauchniy impuls, (31)100.-B.55



4. J.Jalolov Chet tilini o'qitish metodikasi. "O'qituvchi", Toshkent-2012.
5. Xakimova, F. I. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda rasmli ma'lumotlardan foydalanish usullari. Образование, наука и инновационные идеи в мире, 72(3). <https://scientific-jl.com/obr/article/view/24290> DOI: 10.5281/zenodo.16281895
6. Darvishaliyeva, O'. A. (2025). O'zbek tili o'rganuvchilari uchun ingliz tili leksikasining maxsus xususiyatlari. Образование, наука и инновационные идеи в мире, 72(3). <https://scientific-jl.com/obr/article/view/24291>
DOI: 10.5281/zenodo.16281907
7. Azimova, M. M. (2025). Ingliz tili o'rganayotgan o'quvchilarda leksik boylikni oshirishda metodik yondashuvlar va tushunchalar. Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi, 49(1), 169–171. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/24878> DOI: 10.5281/zenodo.16281963
8. Maxammadaliyeva S.M., Azimov S.M. Modernizasyon davrida o'rta ta'lif o'quvchilari uchun ingliz tili o'qitish usullari. Universal xalqaro ilmiy jurnal 1(7), 2024.-B.196-201.
9. Azimov Samandar Murodjon o'g'li. Learning a new language difficulties and solutions. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI, 235
10. Azimov, S., Abdumuminova, D. Xorijiy tillarni o'quvchilarga o'rgatishda metodik usul va yondashuvlar hamda o'qituvchining psixologik bilimi. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(7), 2024. –B.189-195.